

TA'LIM KLASTERI MUXITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING METODIK ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shanasirova Zaxro Yuldashovna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lism fakulteti dotseni

Qosimova Zuhra Boboyorovna

Chirciq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lism fakulteti 4 kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida pedagog kadrlarining ta'lim klasteri muhitida kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali metodik ishlar samaradorligini oshirish va tarbiyachilarning kasbiy va klasterli kommtentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, bo'lajak tarbiyachilar, klaster muhit bilim salohiyat samaradorlik fan va ta'lism, kreativlik, kasbiy kompetentlik, kreativ kompetentlik.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛНОГО ОБРАЗАВАНИЯ В ОБРАЗАВАТЕЛЬНОМ КЛАСТЕРЕ

Аннотация

В данной статье описаны теоретические основы повышения эффективности методической работы и совершенствования методики развития профессиональной кластерной компетентности воспитателей путем развития профессиональной компетентности педагогов дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: дошкольное образование, будущие воспитатели, кластерной среда знания потенциал эффективность наука и образование,

творчество, профессиональная компетентность, творческая компетентность.

INCREASING THE EFFECTIVENESS OF METHODICAL WORK OF ORGANIZATION PRESCHOOL EDUCATIONAL IN AN EDUCATIONAL CLUSTER

Abstract

This article describes the theoretical foundations of improving the effectiveness of methodical work and improving the methodology of developing the professional cluster competence of educators by developing the professional competence of pedagogues in preschool educational organizations.

Keywords: preschool education, future educators, cluster environment, potential efficiency science and education, creativity, professional competence, creative competence.

KIRISH

Dunyo va respublikamiz miqyosida yoshlarning qobiliyatları, iste'dodlari, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish tendentsiyalari kuzatilmoqda. Yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maktabgacha ta'lif tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta'lif tizimining uzlusizligini ta'minlash sharti bo'lib xizmat qiladi, chunki yosh va murg'ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning kelajakda kim bo'lib yetishishlari, qanday fuqarolik pozitsiyani egallashlari bilan bog'liq holda qaraladi.

Kasb ta'lifining shakllanishi va rivojlanish jarayoni, qonuniyatları va tendentsiyalari, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djuraev, P.T.Magzumov, U.N. Nishonaliev, A.R.Xodjabaev, X.F.Rashidov, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, Sh.Sh.Sharipov, M.B.Urazova, J.A.Xamidov, D.O.Ximmataliev, SH.Q.Mardonov,, B.L. Farberman va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.. Kompetentli yondashuvni nazariy idrok etish E.F. Zeer, I.A. Zimnyay Xutorskiyning taqiqotlarida aks ettirilgan bo'lsa, bo'lg'usi menedjerlarning kasbiy tayyorgarligi masalalariga N.A. Kiselev, Ye.V. Lebedev, S.A. Novikova,



N.V. Popov, V.M. Shepel kabi olimlarning ishlari bag'ishlangan. G.I.Xasanova, Ahmedova N.M, Sharipova M.U , G.V.Eldasheva, G.Q,Karimovalarning ilmiy izlanishlari aynan mактабгача та"лим тизими tarbiyachi pedagoglarining kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan. O'tkazilgan ishlarning butun ahamiyatiga qaramay, mактабгача та"лим tashkiloti tarbiyachi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi bizning nazarimizda yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotlar shuni ko"rsatadiki, kompetentsiyalar "bu shaxsning kutilgan va o"lchovli yutuqlari bo"lib, u o"quv jarayoni tugagandan so"ng shaxs nima qila olishini belgilaydi; mutaxassisning ma"lum bir professional sohadagi muvaffaqiyatli faoliyatni uchun uning barcha salohiyatidan (bilim, ko"nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlar) foydalanishga tayyorligini belgilaydigan umumlashtirilgan xususiyat ». Yuqoridagi ta"riflarga asoslanib, "kasbiy kompetentsiya" tushunchasining muhim mazmunini taqdim etish mumkin, bu akmeologiyada o"zining rivojlanish psixologiyasi bo"limida inson kasbiy mahoratining quyi tizimlarining asosiy kognitiv komponenti sifatida qaraladi va kasbiy faoliyatni yuqori mahsulorlik bilan amalga oshirish. Kasbiy vakolatlarning tarkibi va mazmuni asosan kasbiy faoliyatning o"ziga xos xususiyatlari, uning ayrim turlariga mansubligi bilan belgilanadi.



ADABIYOTLAR TAHЛИI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi mактабгача та'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish" kontseptsiyasini ishlab chiqildi. Kontseptsiya O'zbekiston Respublikasida mактабгача та'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'naliishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda mактабгача та'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. [1]

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mактабгача та'lim tashkilotlarida yosh avlodning aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish alohida dolzarblik kasb emoqda. Bu borada pedagog rahbar-jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisiga aylanishi muqarrar.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida mактабгача та'limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta'lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak

bo'lgan muammo hisoblanadi. Aynan, maktabgacha ta'limni isloh qilishda bolaning mактабга таъyorgarligi bilan belgilanuvchi ta'lim sifatini oshirish muhim va zaruriy bo'lib hisoblanadi.

Shu jihatdan olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda rahbarlik layoqatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi. «Avvalambor, uning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o'zini ayamasligi, kerak bulsa, bu yo'lida jonini ham fido qilishiga tayyor bo'lishini, o'z kasb- korining ustasi, shu ishning chinakam bilimdoni, bu borada boshqalarga o'rnak bo'lishini kutadi. Jamoatchilik, halq rahbar shaxsning mustaqil dunyoqarashi, keng fikrashi, uzoqni ko'ra bilish qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turishini, iymon- e'tiqodi mustahkam, irodasi baquvvat, ornomusli, harom-xarish ishlardan hazar qiladigan, izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirdorlik fazilatiga ega bo'lishini,

tashkilotchi, talabchan va qat'iyatli bo'lishini istaydi» [4; 201-b.].

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oldiga - yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi. Bu esa hozirgi vaqtida maktabgacha ta'lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. SHu bilan birga maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi – matabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma'nан yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni



tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas'uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san'atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko'p yillik tajriba talab etiladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lismi isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida "shaxs manfaatlari va ta'lism ustuvorligi" masalalari borasida bir qator olimlar izlanish olib bormoqdalar. Bular R.H. Djuraev, J.G'. Yo'ldoshev, S.Turg'unov, R.Safarova, M. Yuldashev, SH.A. Abdullaeva, Y. M. Asadovlardir.

Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo'lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo'lajak mutaxassislarning har qanaqa jarayonda o'zining ijodiy va kreativ qobilyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarini ko'rsatadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobilyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fiklash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta'lismi tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarini hamda mutaxassislarini kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo olyi ta'lismi muassasasi pedagoglarining zimmasidadir.

Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40% iste'dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikkajuda moyil bo'lar ekanlar. Shunday ekan, ayni shu davr bolalarda kreativ qobilyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta'lismi tashkilotidagi mutaxassislarning o'zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo'lishi kerak. Hozirgi zamon ta'lismi jarayoniga Oliy ta'lismi muassasasida taxsil oluvchi bo'lajak tarbiyachilarini o'qitishda "Kreativ Pedagogika asoslari" fanining qo'shilgani talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo'lguvchi kreativ kompetentligini rivojlantirilishi ta'lismi jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda xizmat qiluvchi omil bo'ladi desak, adashmaymiz.



Maktabgacha ta'lim konsepsiyasiga binoan maktabgacha ta'limning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat: bolaning shaxsiy rivojlanishi, uning hissiy farovonligi haqida g'amxo'rlik qilish, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish, bolalarning boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirish. Ushbu vazifalar shaxsni rivojlantirishning o'ziga xos o'ziga xos qimmatli davri sifatida maktabgacha yoshga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Maktabgacha taraqqiyot davrining qiymati va uning keyingi barcha inson hayoti uchun doimiy ahamiyati maktabgacha tarbiyachilarga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari oldida turgan asosiy vazifalarni hal qilish, maktabgacha ta'limning muqobil dasturlarining yangi maqsadlari va mazmuni bolaga nisbatan manipulyativ yondashuvni, u bilan o'zaro munosabatlarning tarbiyaviy va intizomiy modelini inkor etib, kattalar va bolalar o'rtasidagi yangi munosabatlarni kutmoqda. Biroq, kelajakdagi o'qituvchilarni o'qitish jarayonida hozirgi paytda ko'plab ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faqat maxsus bilimlarga ega bo'lishadi; ular ko'nikma va ko'nikmalarni egallaydilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o'zgardi, zamonaviy o'quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan ta'lim maskanlari sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatining pedagogik-psixologik asoslari, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning xukukiy-me'yoriy asoslari, boshqarishda jahon tajribasi va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyalarini o'rganish va shu asosda chora- tadbirlarni belgilash, amaliyotga joriy qilish ishlari jadallahashmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimining yangi avlod rahbarlarini shakllantirish masalasi ham kundalik dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalar sirasiga kiradi. Bunda rahbarning muvoofiqlashtirish, rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg'unlikda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari to'g'risida e'tirof etilgan funktsiyalar bolalarning intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga va pedagog



xodimlarning ilmiy-ma'naviy jihatdan o'sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi.

MTT pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta'lif jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan ustozlarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylilik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lif tarbiya oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Zero, shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz" kitobida: "O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa – kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi"- degan fikrni e'tirof etadilar. Darhaqiqat, XXI asrda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmokda. SHuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi.

Maktabgacha ta'lif tizimida ta'lif sifati – tarbiyachi va xodimlarning kasbiy rivojlanishi tavsifi bo'lib, zamonaviy bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanishi e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalar, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lif natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nан barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergen ta'lif sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lif tizimini tubdan isloh qilishda ta'lif jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni

shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzARB masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir.

Mustaqil O'zbekistonda pedagoglik kasbiga hurmat e'tibor va uni sharaflash beqiyosdir, shu bilan birga ustozlar oldiga qo'yiladigan mas'uliyat ham katta. Hozirgi kunda o'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkor pedagoglar, olimlar, tadqiqotchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Bularning barchasi mustaqil

uzluksiz ta'lIM tizimini takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Bunda kvalimetrik tahlil muhim ahamiyat kasb etadi.

Kvalimetriya – diagnostik metodlarni aniqlash, sifatni miqdoriy baholashning nazariy asoslarini yaratish bilan bog'liq ilmiy va amaliy faoliyat sohasi. Kvalimetriya kvalitologiya (sifat haqidagi fan)ning tarkibiy qismidir.

Dunyoda ta'lIM sifati menejmentini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta'lIM sifatini kafolatlashning yagona mezonlari va standartlarini belgilashni aniqlash; ta'lIM xizmatlari eksportini rivojlantirish; ta'lIM dasturlarini akkreditatsiyalash milliy tizimlarini muvofiq-lashtirish; sifatni boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish. Biroq, hanuzgacha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish va ushbu tarbiya maskanlarida ta'limiy va tarbiyaviy boshqaruv menejmentiga xos xususiyatlarni aniqlashning yagona tizimini takomillashtirish masalalari o'z yechimini tulaqonlicha amalga oshirilmagan. Shu jihatdan olganda, ta'lIMda sifatni boshqarish, sifatni kafolatlashda akkreditatsiyaning o'rni, sifatning tashqi monitoringi, oliy ta'lIMda sifatni baholash tizimlari, ta'lIM jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va ta'lIM sifatini nazorat qilishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash zarurati oshmoqda.



XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini takomillashtirish muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rghanish ehtiyoji sezilmoqda. Muammoning yechimini topish uchun:

- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirishda «tarbiya kvalimetriyasi» va «ta'lim kvalimetriyasi» tushunchalarini ilmiy jihatdan tavsiflash;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari boshqarishning metodologik va nazariy asoslarini sifatli menejment nuqtai nazaridan tadqiq qilish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlariga qo'yiladigan davlat talablarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida takomillashtirish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malaka oshirishdan keyingi faoliyati samaradorligi monitoringini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar yaratish va amaliyatga tatbiq etish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish lozim.

Davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining faoliyatini kvalimetriya asosida baholash, kasbiy faoliyat natijasi, tarbiyalanuvchilarining intellektual darajasi va shaxsiy rivojlanishi mezonlariga asoslangan holda takomillashtirishga qaratish lozim.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan ta'lim komil inson shaxsini yetuklikka yo'naltiradi. Binobarin, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab bergenligi tufayli shaxs manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.



REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olujanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.

